O‘ZBEKISTONDA MAHALLA INSTITUTINING YOSHLAR RIVOJIDAGI ROLI VA ULARGA QARATILGAN E’TIBOR (YASHNOBOD TUMANI ALIMKENT MAHALLASI MISOLIDA)

Maftuna Akramovna
Yashnobod tumani Alimkent mahallasi yoshlar yetakchisi

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20493218

O‘zbekistonda mahalla instituti jamiyat hayotining eng muhim ijtimoiy tayanchlaridan biri hisoblanadi. U nafaqat hududiy boshqaruv tizimi, balki aholining ijtimoiy muammolarini hal qilish, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va ularni jamiyatga moslashtirishda bevosita ishtirok etuvchi eng yaqin ijtimoiy institut sifatida faoliyat yuritadi.

Bugungi kunda davlat siyosatida yoshlar masalasi ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shu jarayonda mahalla tizimi eng quyi, biroq eng samarali bo‘g‘in sifatida muhim o‘rin egallaydi.

Yashnobod tumani Alimkent mahallasida olib borilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, bu hududda yoshlar bilan ishlash tizimi izchil yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, amaliy natijalarga yo‘naltirilgan. Mahalla yoshlar yetakchisi Maftuna Akramovna faoliyati orqali yoshlar bilan individual ishlash, ularning muammolarini erta aniqlash va tezkor yechimlar topish mexanizmi shakllantirilgan. Uning yondashuviga ko‘ra, har bir yosh — alohida salohiyatga ega shaxs bo‘lib, uni to‘g‘ri yo‘naltirish jamiyat kelajagini belgilaydi.

Mahallada probatsiya hisobida turgan yoshlar bilan ishlash yo‘nalishida ham sezilarli natijalarga erishilmoqda.





Jumladan, Abdullayev Sardor mahalla ko‘magida bepul onlayn ta’limga jalb qilinib, rus tilini o‘rganib sertifikat oldi va tadbirkorlik faoliyatini boshladi. U bu jarayonni “Mahalla menga ikkinchi imkoniyatni berdi “ deb aytadi.





Shuningdek, Shamsiddinov Javohir ingliz tilini o‘rganib, IELTS sertifikatiga ega bo‘ldi va logistika sohasida ish boshladi. U ham ushbu jarayonni hayotidagi muhim burilish nuqtasi sifatida baholaydi.

Mahallada ijtimoiy ishlar faqat nazorat yoki qo‘llab-quvvatlash bilan cheklanmay, balki ta’lim imkoniyatlarini kengaytirishga ham qaratilgan. Yoshlar uchun bepul ingliz va rus tili kurslari, kitobxonlik loyihalari hamda sport to‘garaklari yo‘lga qo‘yilgan. Bu esa yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish va ularni ijobiy yo‘nalishga yo‘naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bandlik masalasi ham mahalla faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Masalan, Tojiddinova Azimaxon oliy ta’limni tamomlagach ish topishda qiyinchilikka duch kelgan bo‘lsa-da, mahalla ko‘magida mutaxassisligi bo‘yicha ishga joylashtirildi. U bu jarayonni “Mahalla menga yo‘l ko‘rsatdi” deb ifodalaydi.





my.gov.uz

«Ягона миллий меҳнат тизими» идоралараро дастурий-аппарат комплекси

МЕХНАТ ДАФТАРЧАСИДАН КЎЧИРМА

Ҳужжат рақами: 504282969
Берилган сана: 13.04.2026

TOJIDDINOVA AZIMAXON XAMIDILLO QIZI

Паспорт рақами: AD1941443
ЖШШИР:61907045140014
СТИР:
Туғилган санаси: 19.07.2004

Маълумотномада кўрсатилган маълумотлар тўғрилигини текшириш учун мобил телефон ёрдамида QR-кодни сканер қилинг

https://my.mehnat.uz/check

МЕХНАТ ФАОЛИЯТИ

№	Сана	Лавозим	Бўлим	Ташкилот
1	13.04.2026 - н.в.	Сектор бошлиғи (бошқа фаолият соҳаларида)	Матбуот, ахборот ва жамоатчилик билан ишлаш сектори	OZBEKISTON ISTE' MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH JAMIYATLARI FEDERATSIYASI TOSHKENT SHAHAR HUDUDIY BIRLASHMASI

Меҳнат соҳасидаги маълумотларни бошқариш маркази

Ушбу ҳужжат Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 31 октябрдаги ПК-4502-сон қарорига мувофиқ жорий этилган «Ягона миллий меҳнат тизими» идоралараро дастурий-аппарат комплексида шакллантирилган маълумотлар асосида чоп этилган.

«Ягона миллий меҳнат тизими» идоралараро дастурий-аппарат комплексини қўллаб-қувватлаш call-маркази - +99871 200 7030

Bundan tashqari mahallamizda —iqtisodiy imkoniyatlari cheklanganligi sababli bepul ta’lim imkoniyati yaratilib, kelajakdagi maqsadlariga erishishiga sharoit yaratilib kelmoqda

Mahallada yoshlar nafaqat bilim, balki milliy qadriyatlar ruhida ham tarbiyalanmoqda. Haftaning har juma kuni “Milliy kun” sifatida o‘tkazilib, milliy urf-odatlar va ma’naviy qadriyatlar targ‘ib qilinadi. Payshanba kunlari esa “Yoshlar kuni” tashkil etilib, yoshlar o‘z muammolarini bevosita mutasaddilar bilan ochiq muhokama qilish imkoniga ega bo‘ladilar.





Bu jarayon mahalla yoshlar yetakchisining “ochiq muloqot — eng samarali yechim” tamoyili asosida olib borilmoqda.

Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar ham alohida e’tiborda bo‘lib, ular bepul ta’lim va sport to‘garaklariga jalb qilinmoqda. Bu esa ularning jamiyatga qayta integratsiyasini ta’minlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, Alimkent mahallasidagi tajriba shuni ko‘rsatadiki, mahalla instituti bugungi kunda nafaqat ma’muriy birlik, balki yoshlarni tarbiyalash, qo‘llab-quvvatlash va ularning kelajagini shakllantirishda muhim ijtimoiy makon sifatida faoliyat yuritmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Alimkent mahallasida amalga oshirilayotgan ishlar mahalla institutining yoshlar siyosatidagi samarali va amaliy mexanizm ekanini yaqqol namoyon etadi. Ushbu tizim orqali yoshlar ta’lim, bandlik va ijtimoiy hayotga bosqichma-bosqich integratsiya qilinmoqda.

Shu bilan birga, erishilgan natijalarni yakuniy yutuq sifatida emas, balki uzluksiz rivojlanish jarayonining muhim bosqichi sifatida baholash lozim. Chunki yoshlar bilan ishlash doimiy takomillashuvni talab qiladigan tizimdir.

Kelgusida ushbu yondashuvlar yanada kengayib, yanada samarali va tizimli natijalarga olib kelishi shubhasizdir.

Mahalla — xalq va davlat o‘rtasidagi eng yaqin ko‘prik,
yoshlar esa — mamlakat kelajagining asosiy tayanchi.

Shu ma’noda,
mahalla — ijtimoiy taraqqiyot markazi,
yoshlar esa — uning eng katta kuchidir.

O‘zbekiston taraqqiyoti aynan ana shu uyg‘unlikka bog‘liqdir.